

KORXONALARDA KREDIT OPERATSIYALAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI

Shukurov Shavkatbek Ibrohim o`g`li

Bank moliya akademiyasi magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar: Korporativ boshqaruv, tijorat bank, aktiv operatsiyalari, kapital, davlat, firma, risk, bankrotlik, depazitorlar, aksiyador.

Annotasiya

Ushbu tadqiqat ishida tijorat banklarida korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirish nazariy jihatlarini yoritishda olimlar va soha vakillarining fikrlari oʻrgandik. Banklar moliyaviy bozorlarga toʻgʻridan – toʻgʻri chiqish imkoni yoʻq firmalarning korporativ boshqaruv samaradorligiga taʼsir qiladi. Ushbu banklardan qarz oladigan firmalarning korporativ boshqaruvda qatnashish bilan aks etadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish. Jahonda iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda bank tizimining oʻrni, taʼsiri va ahamiyati juda kata hisoblanadi. Shu boisdan bank tizimining faoliyati oʻziga xos korporativ boshqaruvni talab etadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi tizimini tubdan takomillashtirishga doir Yettita yoʻnalishni oʻz ichiga olgan «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni qabul qilinishi, ushbu muhim hujjat ijro mexanizmini namunali tarzda yoʻlga qoʻyish, uni amalga oshirishda samaradorlikni taʼminlash yuzasidan tegishli vazirlik va tuzilmalar keng koʻlamli saʼy-harakatlar olib borishni talab etmoqda.

Bu esa, banklarning barqarorligini va raqobatbardoshligini taʼminlash hamda faoliyat samaradorligini oshirishda, korporativ boshqaruvning huquqiy va institutsial asoslarini xalqaro talablarga mos holda takomillashtirishni taqozo etadi. Banklarda korporativ boshqaruvining umumiy tamoyillari, aksiyadorlar va menejerlar oʻrtasidagi munosabatlar hamda boshqaruv hisobotlarning taqdim etilishi kabi jarayonlari bank nazorati boʻyicha Xalqaro Bazel qoʻmitasi tomonidan qabul qilingan "tijorat banklarida korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirish" tavsiyalari oʻz aksini topgan. Banklarning korporativ boshqaruv tizimining zaifligini hamda, ushbu tizimni takomillashtirish va isloh qilishni davom ettirish zarurligini koʻrsatdi. Bu esa, Bank nazorati boʻyicha Bazelqoʻmitasi tomonidan banklarning korporativ boshqaruv tizimiga oid tavsiyalari qayta koʻrib chiqilib, uni mamlakatimiz bank tizimida yanada takomillashtirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI: Iqtisodchi olimlardan O.Y.Rashidovning fikricha, "Bank tizimi-tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim boʻlib - mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishi moddiy va nomoddiy neʼmatlarni ishlab chiqarish, muomala va isteʼmol qilish bilan bogʻlik xolda koʻrib chiqish zarurdir"¹ deb taʼrif beradi.

Rossiyalik olimlar Y.G.Veshkin, G.L.Avagyan "Bank – bu kredit tashkiloti boʻlib, u quyidagi bank

¹ О.Ю.Рашидов "Пульс кредит ва банклар", 2011. 320 бет.

operatsiyalarini amalga oshirishning alohida huquqiga ega: jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag`lariga qo`yilmalarni jalb etish, o`z nomidan va o`z hisobidan ushbu mablag`larni qaytarib berish, to`lash, tezkor bajarish, jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisob raqamlarini ochish va yuritish sharti bilan joylashtirish”, deb ta`kidlashgan.²

Iqtisodchi olim O.I.Lavrushin «Bank faoliyati muayyan uziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu o`ziga xos xususiyatlar quyidagilar bilan bog`lik:

- 1) bank ishlab chiqarish sohasida emas, balki ayirboshlash sohasida ishlaydi;
- 2) bank - bu muayyan ma`noda savdo instituta hisoblanadi;
- 3) bank - bu tijorat korxonasi;
- 4) bankning faoliyati tadbirkorlik tavsifga ega;
- 5) bank - bu nafaqat tijorat korxonasi, balki jamoat instituti ham»,³ deb izohlaydi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlarini o`rganar ekanmiz, barcha ta`riflar uziga xos tarzda bank tizimini ochib bergan va bu tizim keng qamrovliligini, ushbu ta`riflarning barchasi o`rinli ekanligini kurishimiz mumkin.

Iqtisodchi olim G.I.Prosvetovning fikricha, «Bank menejmenta bu - bank moliyaviy resurslarini bank barqarorligini ta`minlash maqsadida boshqarishdir»⁴, deb izohlasa, A.V.Tavasiyev esa, «Bank menejmentini bank faoliyatining barcha jarayonlari, munosabatlarining oddiy boshqaruvi», deb ta`riflaydi.⁵ Yana bir rus olimasi YE.P.Suskayaning ta`rificha, bank menejmenti «Bankni boshqarish jarayonida maqsadga erishish va uni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish»⁶dir.

Hozirgi kunda tijorat banklarida boqsharuv samaradorligini oshirish, unda bir qator yangi boshqaruv modellarin joriy etish bo`yicha qator ilmiy-tadqiqotlar o`tkazilgan. Mazkur tadqiqotlarda boshqaruv sifatini oshirish, uning nazoratini tashkil etish va takomillashtirish kabi yo`nalishlarga asosiy urg`u berilgan.

Xususan, V.Usoskin tijorat banklarini samarali boshqarishda quyidagi vazifalarga alohida e`tibor berish kerakligini ta`kidlaydi⁷:

- majburiy rezervlarni shakllantirishda jalb etiladigan mablag`lar qismidan tashqari bankka daromad keltirmaydigan mablag`lar salmog`ini kamaytirish;
- tijorat banklari tomonidan bank aktiv operatsiyalarini rivojlantirishga yo`naltirishga kerakli kredit mablag`lar ulushini oshirish;
- jalb qilingan “arzon” resurslar hisobiga bank daromadini oshirish.

Professor A.A.Omonov “mamlakat iqtisodiyotini yangilash va modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining resurslarini shakllantirish hamda ularni samarali boshqarish bilan bog`liq bo`lgan bir qancha masalalarga to`xtalib o`tadi:⁸

- tijorat banklarining resurslarini barqaror moliyaviy mablag`lar hisobidan shakllantirish va ularning depozit siyosatini samaradorligini oshirish;

² Экономический анализ деятельности коммерческого банка: учеб.пособие/ Вешкин Ю.Г.,Авагян Г.Л.-:Магистр,2007.-350 с.

³ ОСНОВЫ банковского дела: учебное пособие,под ред. О.И.Лаврушина.-М.: Кнорус. 2008.-384 с.

⁴ Sobirjonova D., Sulaymonova B. Menejment. O`quv qo`llanma.-T.: Iktisod va moliya,-2008.212-6.

⁵ Тавасиев А.М. Банковский менеджмент.// Деньги и кредит, 2009 г.№3- 61с.

⁶ Суская Е.П.Управление ссудными операциями как составная часть банковского менеджмента. //Денги и кредит, 2008 г. №4-с.36

⁷ Усоскин В. Современный коммерческий банк: управление и операции. М: Антидар, 1998-320 с.

⁸ A.Omonov. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya, 2-nashri. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2010. 40-b.

- banklarning moliyaviy resurslari tarkibida qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish orqali jalb qilinayotgan mablag'lar hajmini oshirish;
- milliy valyutaning xarid qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish;
- bank oborotidan tashqaridagi mablag'lar hajmini zarur darajada kamaytirish, tovarlar va xizmatlar bozorida bahoning barqarorligini ta'minlash kabi masalalar shular jumlasidandir.


TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarini boshqarishning nazariy jihatlarini yoritishda olimlar va soha vakillarining fikrlari, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. "Korporativ boshqaruv" tushunchasi tijorat banki faoliyatini boshqarishda Kengash a'zolari va boshqa rahbar xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan asosiy faoliyat hamda qoidalar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga korporativ boshqaruv konsepsiyasi biznes yuritish etikasining andozalari va aksiyadorlarga bo'lgan munosabatlarda mas'uliyat hissi hamda bank faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat talablarini e'tiborga olishni o'z ichiga oladi.

Respublikamizda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasi yirik tijorat banklarning korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi bo'ldi.

Korporativ boshqaruvning banklar rivojlanishidagi muhim rolini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Moliyalashtirish manbaalarini olish imkoniyatini rtyuaytiradi. Bu esa, investitsiya, iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlikni oshiradi.
2. Kapital qiymatini pasayishi va bankning yuqori baholanishiga olib keladi. Bu o'p, yavbatida, investitsiya va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.
3. Operatsion faoliyatning yaxshilanishiga ta'sir etadi, bu resurslarning yaxshiroq joylashishi, samarali boshqaruv, boylukning yaratilishini kengaytiradi.
4. Davlat va firma darajasidan past risk, o'z navbatida kamroq bankrotlik, kamroq moliyaviy inqirozlar bo'lishini ta'minlaydi.
5. Ulushlar bilan yaxshiroq munosabatlarni ta'minlaydi, umumiy muhitni yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi.



1.1.1-rayem. Tijorat banklarining boshqarish jarayonlarining uzviyligi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ta'riflarini quyidagi chizmada asosi keltirib berishga harakat qildik.

Banklarda korporativ boshqaruv muhim ahamiyatga ega va ushbu boshqaruv bankning iqtisodiy natijalariga ta'sir etadi. Banklar jamiyatning jamg'armalarini to'playdi va ularni joylashtiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda banklar firmalar uchun juda muhim tashqi moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Shuningdek, banklar moliyaviy bozorlarga to'g'ridan – to'g'ri chiqish imkoni yo'q firmalarning korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sir qiladi. Ushbu banklardan qarz oladigan firmalarning korporativ boshqaruvida qatnashish bilan aks etadi.

Banklarning o'zlari ham korporatsiya hisoblanadi. Korporativ boshqaruv banklarni baholash va ularning kapitali qiymatini hisoblashga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Korporativ boshqaruv banklar faoliyatiga, moliyaviy vositachilik xarajatlari va shu orqali ushbu bankdan qarz oluvchi firmalar capital qiymatiga ta'sir qiladi. Korporativ boshqaruv banklarning risklarni boshqarishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tijorat banklari, odatda, korporatsiyalarning bir turi hisoblansada, ular nquyidagi o'ziga xosliklarga ega bo'ladi:

- banklarning faoliyatini baholash va risklilik darajasini baholash qiyin;
- banklarda turli – tuman manfaatdorlar (ko'pchilik depazitorlar va aksiyadorlar)ning mavjudligi monitoring yuritishni rag'batlantirmaydi;
- banklar yuqori leveredjga ega, ko'pgina qisqa muddatli talablar yuqori riskli bo'lib, bankni osongina bankrot qilishi mumkin;
- banklar yuqori larajada tartibga solish obekti hisoblanadi. Bankrotlik jjuda katta xarajatlarni keltirib chiqaradi, tizimli jihatdan muhimligi uchun tartibga solish keng qamrovli bo'ladi va banklarning ayrim faoliyati chegaralanadi.(mahsulotlar ishlab chiqarish, filliallar ochish), qarzlarnin klassifikatsiyalash va zaxira talablari bo'yicha talablar qo'yiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pchilik hollarda banklar uchun tartibga solish qonunlarga nisbatan muhim hisoblanadi.

XULOSA: Biz bank menejmentining boshqaruv jarayoni tarkibiga kiruvchi bank faoliyatini boshqarishga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Bank faoliyatini boshqarishni ko'rib chikish jarayonida - barcha operatsiya turlarini boshqarish (aktiv va passivlarni boshqarish, likvidlilik va b.);

- maxsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- maxsulot va xizmatlarni bozorga chiqarish;
- innovatsion faoliyat;
- barcha yo'nalish, bo'lim va filiallar bo'yicha bank siyosatini asoslab berishga⁹ to'xtalib o'tishimiz lozim.

Bankning moliyaviy operatsiyalari hamda ichki va tashqi muammolarini yechish bankning korporativ boshqaruv tizimiga bog'liqdir. Boshqaruv tizimining oldida bank tizimidagi muammolarini xal qilish maqsadi turadi, bu esa uzviy ravishda bankning aktiv operatsiyalarini boshqarish tarkibiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

1. О.Ю.Рашидов “Пул,кредит ва бакнлар”, 2011. 320 бет.
2. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: учеб.пособие/ Вешкин Ю.Г.,Авагян Г.Л.-:Магистр,2007.-350 с.

⁹ Банковский менеджмент: учебник, под ред, Е.Ф. Жукова Юнити-Дана 2012 г. 319 с.

3. Основы банковского дела: учебное пособие, под ред. О.И.Лаврушина.-М.: Кнорус. 2008.-384 с.
4. Sobirjonova D., Sulaymonova B. Menejment. O`quv qo`llanma.-Т.: Iktisod va moliya,-2008.212-6.
5. Банковский менеджмент: учебник, под ред, Е.Ф. Жукова Юнити-Дана 2012 г. 319 с.
6. Тавасиев А.М. Банковский менеджмент.// Деньги и кредит, 2009 г.№3- 61с
7. Суская Е.П.Управление ссудными операциями как составная часть банковского менеджмента. //Денги и кредит, 2008 г. №4-с.36
8. Усоскин В. Современный коммерческий банк: управление и операции. М: Антидар, 1998-320 с.
9. А.Омонов. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya, 2-nashri. –Т.: “Iqtisod-moliya”. 2010. 40-b.